



# SHARQ VA G'ARB ADABIYOTINI TARIXIY-QIYOSIY O'RGANISH MASALALARI

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY KONFERENSIYA

ISSUES OF COMPARATIVE HISTORICAL  
STUDIES IN EAST AND WEST LITERATURE

INTERNATIONAL CONFERENCE

24-25 MAY 2024-YIL



TSUOS.UZ



TSUOS



TSUOS.UZ



**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**“SHARQ VA G’ARB ADABIYOTINI TARIXIY-QIYOSIY  
O’RGANISH MASALALARI”**

**«ВОПРОСЫ СРАВНИТЕЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ  
ЛИТЕРАТУР ВОСТОКА И ЗАПАДА»**

**ISSUES OF COMPARATIVE HISTORICAL STUDIES IN EAST AND  
WEST LITERATURE**

**Toshkent 2024**

**Mas'ul muharrirlar:**  
**f.f.d. dots. D.Z. Muhiddinova**  
**Tahrir hay'ati:**  
**f.f.d. prof. R.U. Xodjaeva, f.f.d. prof. U.U. Muhibova,**  
**f.f.d. dots. O.Turdiyeva, PhD v.b. dots. N. M. Saidova,**  
**PhD v.b. dots. N. Kabirova, PhD. G.Qosimova,**  
**kat. oqit. Sh.T. Komilova.**

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2024 yil 7  
oktyabr 2 - sonli majlisi qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etilgan.**

## SO‘Z BOSHI

Sharq va G‘arb adabiyotini qiyosiy o‘rganish bugungi globallashuv jarayonining dolzarb masalardan biridir. Sharq adabiyoti o‘z navbatida G‘arb uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qilib kelgan bo‘lsa, G‘arb adabiyoti ham o‘z navbatida Sharq adiblari uchun ilhom manbai bo‘ldi. Mana shu ilhom manbai o‘zaro adabiy aloqa va adabiy ta'sir hodisalaridir. Adabiy aloqa va adabiy ta'sirlanish hodisalari jahon xalqlari madaniyati tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadigan hodisalardan biridir. Uzoq tarixiy ildizlarga ega ushbu hodisa doimo insoniyatni bir-biridan o‘rganish, bir-biriga o‘rgatish, bir madaniyatning boshqa bir madaniyat yutuqlaridan unumli foydalanishga hidoyat etib kelgan. Muayyan bir milliy adabiyotning boshqa bir milliy adabiyot durnonalaridan yoki umumjahon adabiyot ummonidan bahra olishi, undan ta'sirlanish masalasini chuqurroq, ilmiyroq tarzda o‘rganish zaruratining yuzaga kelishi natijasida XIX asrda Yevropada qiyosiy adabiyotshunoslik ilmi alohida fan sifatida rivojlana boshladi. Sharq xalqlari adabiyotini muayyan bir xalqning adabiyoti, yoki G‘arb adabiyoti bilan qiyosiy tarzda o‘rganish masalasi tabiiyki, har biri alohida katta mavzulardan biridir. Zero, “1001 kecha” va G‘arb adabiyoti, Hofiz va jahon adabiyoti, Xayyom va jahon adabiyoti, Arab she‘riyati va trubadurlar she‘riyati, “Panchatatra” va jahon adabiyoti, realizm va Sharq adabiyoti, modernizm va Sharq adabiyoti, rus adabiyoti va Sharq adabiyotiga o‘xshagan mavzular bo‘yicha bir qancha alohida tadqiqotlar yaratish, risolalar yozish mumkin. Hech bir badiiy asar bejiz yaratilmaydi. Uning asosida qandaydir ta'sir, ilhom manbaini yotishi shubhasizdir. Qanchadan qancha olimlar, adiblar Sharq adabiyoti va falsafasi ta'sirida, qanchadan qancha sharq adiblari esa G‘arb adabiyoti va falsafasi ta'sirida o‘zlarining asarlarini yaratishgan. Tashkil etilayotgan ushbu ilmiy konferentsiya Sharq va G‘arb adabiyotini tarixiy-qiyosiy o‘rganish sohasida erishgan muvaffaqiyatlari va bu sohadagi kelajak rejalarini jahon miqiyosida ko‘rib chiqishda va belgilashda alohida ahamiyat kasb etadi.

**SHARQ VA G'ARB XALQLARI ADABIYOTIDA O'ZARO  
TA'SIR MASALALARI  
(“MING BIR KECHA” ASARI MISOLIDA)**

*Astanova Gulnora Aminovna,  
Buxoro Davlat universiteti professori,  
filologiya fanlari doktori  
Buhoro, O'zbekiston Respublikasi*

**Annotastiya:** Ma'lumki, XI–XIV asrlarga kelib G'arb madaniyatiga Sharqning, xususan, Eron, Vizantiya, Arab davlatlari, Hindiston, Xitoy mamlakatlari qadimgi madaniyatining boshqa xalqlar ma'naviy-madaniy hayotiga ta'siri juda katta bo'lgan. Chunki bu davrda Sharq xalqlarining qadimiy madaniyati, fani va ma'naviyati qayta uyg'onib, anchagina rivoj topgan edi. G'arbliklar Sharqda yuz bergan birinchi, ikkinchi Uyg'onish davrlari yutuqlarini Yevropaga ko'chirib o'tdilar. Uning markazi dastlab Franziya, keyin butun Yevropa – Ispaniya, Italiya, Germaniyaga yoyildi. Sekin-asta o'zaro adabiy aloqalar bir-biriga ijobiy ta'sir ko'rsatib, biri ikkinchisining ma'naviyatini, madaniyatini boyitdi, to'ldirdi. Mazkur maqolada shu ma'naviyatning bir namunasi bo'lgan Sharq adabiyoti durdonasi “Ming bir kecha” asarining G'arb adabiyotiga ta'siri borasida aniq dalillar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Ming bir kecha, asar, Sharq, G'arb, ta'sir, madaniyat, uyg'onish davri.

**Abstract:** It is known that by the XI-XIV centuries, the ancient culture of the East, in particular Iran, Byzantium, Arab countries, India and China, had a great influence on the culture of the West, that is, on spiritual and cultural life. Because during this period the ancient culture, science and spirituality of the peoples of the East awakened and significantly developed. Western countries transferred the achievements of the first and second periods of the Renaissance to Europe. The achievement center spread first to France, then to the whole of Europe - Spain, Italy, Germany. Gradually, mutual literary connections positively influenced each other, enriching and enriching each other's spirituality and culture. This article provides clear evidence of the influence of the masterpiece of Eastern literature, The Arabian Nights, on Western literature, which is an example of this spirituality.

**Key words:** “A Thousand and One Nights”, work, East, West, influence, culture, Renaissance.

**Kirish.** XI–XIV asrlarda G'arb madaniyatiga Sharq madaniyatining boshqa xalqlar ma'naviy-madaniy hayotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Chunki bu davrda Sharq xalqlarining qadimiy madaniyati, fani va ma'naviyati qayta uyg'onib, anchagina rivoj topgan edi. Sharqda yuz bergan birinchi, ikkinchi uyg'onish davrlari yutuqlari sekin - asta Yevropaga ko'chib o'tdi. uning markazi dastlab franziya, keyin butun Evropa – ispaniya, italiya, germaniyaga yoyildi. buning natijasida o'zaro adabiy aloqalar bir-biriga ijobiy ta'sir ko'rsatib, biri ikkinchisining ma'naviyatini, madaniyatini boyitdi, to'ldirdi. manbashunos olimi f.Sulaymonova “Sharq va G'arb” kitobida: “XI–XIV asrlarda ovrupo xalqlari ziyolilari uchun arab tilini bilish, Sharq madaniyati, ilm-fani, adabiyoti bilan yuzaki bo'lsa-da, tanish bo'lmoqlik shart hisoblangan. G'arbiy ovrupodagi birorta universitet, ayniqsa, tibbiyot fakul'teti arab fani va tilisiz faoliyat ko'rsatishi g'ayritabiiy bo'lgan”[9,b.5], – deb xabar beradi. buning samarasi o'laroq, G'arb o'zining uyg'onish davrida Sharqda erishilgan ilm-fan yutuqlaridan keng foydalana oldi. olimi mazkur kitobida fransuz olimi fikrini keltiradi: “fransuz olimi gyuning fikricha, evropada XII–XIII asrlarda Sharq olimlari asarlari tarjimasi bilan tanishgach, umuman, Sharq va uning madaniyati bilan yaqinlashish ehtiyoji tug'iladi. 1311–1312 yillar vena soborining qaroriga binoan parij, rim, oksford, bolonya, Salomank universitetlarida Sharq tillari kafedralari tashkil etiladi. maqsad Sharq fani xazinalaridan foydalanish edi”[9,b.6]. natijada, Sharq xalqlari urf-odatlarini, an'analari uyg'unlashib, yangi bir yuksak madaniyat sarchashmalari bunyod etildi. Sekin-asta o'zaro aloqalar tufayli er yuzi aholisi bir-birlariga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatib, biri ikkinchisining ma'naviyatini, madaniyatini boyitdi, to'ldirdi, ayni chog'da evropani ma'naviy uyg'otgan hayotbaxsh yo'l ham bo'ldi. mana shu ma'naviyatning bir namunasi bo'lgan Sharq adabiyoti gultoji “ming bir kecha” asarining G'arb adabiyotiga ta'siri borasida aniq dalillar mavjud.

**Asosiy qism.** Aslida “Arab xalq adabiyotining keng tarqalgan janrlaridan biri siyra (siyrat) hozirgi adabiyotshunoslikda xalq romani yoki keng ko'lamdagi xalq qissasi bo'lib, u taxminan VI asrdan bugunga qadar arab turli tabaqalari – shahar va qishloq mehnatkashlari, hunarmandlar, savdogarlar va oddiy kishilar orasida keng tarqalgan ommabop adabiyotlar asarlaridir”[11,b.112], – deydi B.Ya.Shidfar o'z asarida. Akademik N.Ibrohimov arab xalq adabiyotiga oid monografiyasida: “O'rta asrlar arab badiiy nasrida “siyar” (siyratlar) va

“qisas” (qissalar) deb ataluvchi hayotnomalar, sarguzasht asarlari salmoqli o'rin tutadi. Hajmi va mazmuni turlicha bo'lgan bu asarlardagi ayrim voqea va qahramonlar “ming bir kecha” to'plamiga ham kirib qolgan. Biroq arab xalq qissalarini o'rganish dastlab arab mamlakatlarida emas, balki evropa mamlakatlarida boshlanib ketdi”[5,b.8], – deydi. “XII-XIV asrlarga kelib ko'plab sehrli ertak va afsonalar, g'aroyib sarguzashtlardan hikoya qiluvchi qissalar, turli-tuman Sharq ishqiy-romantik asarlarni Yevropa xalqlari tillariga tarjima qilish avj olganligi, evropa tillariga tarjima bo'lgan arabcha asarlar orasida “Ming bir kecha” ertaklarining sehrlovchi hikoyatlari qadim zamonlardan buyon dunyo kitobxonlari qalbini zabt etganligi, jahon adabiyotshunosligida “Ming bir kecha” asarini o'rganishda avval Yevropaliklar bu asarning go'zal tarjimalarini yaratganliklari, “Ming bir kecha” asari Yevropaning bir qator tillariga, jumladan, Franstuz, Ingliz, Nemis, Ispan, Italyan, Daniya, Rus tillariga tarjima qilinganligi haqida o'z asarida ma'lumot beradi professor N.Komilov[6,b.131]. Hattoki, slavyancha va bosniyacha tarjimalari ham dunyo yuzini ko'rdi. O'rta asrlarda Sharqqa qiziqish yanada jonlandi. volterning falsafiy qissalari (“Kandid”, “Zadig yoxud taqdiri azal”), Monteskening “Fors maktublari”, Hofiz va Sa'diyning ulug'vor she'riyatidan ilhomlangan Hyotening “G'arbu Sharq devoni”, Hayne asaridagi sevgi otashida jonidan kechgan Azro, Vilgelm Haufning “Ming bir kecha” mavzuidagi ertaklari, Bayron dramatik dostonlari (“Manfred”, “Gour”, “Dengiz qaroqchisi”), joni, iymonini iblisga sotgan xalifa tasvirlangan “Vatek” “Arabiy ertagi”, Shatobrianning nozikta'b Andaluz bahodirlari Abenser rojiylar qissasi G'arbiy Yevropa romantik adiblari va shoirlari ijodidagi sharqona ruhning eng yorqin namunalaridir[12,b.5].

Uyg'onish davrining italyan yozuvchilari o'sha davrda “Ming bir kecha” qissalarini kashf etdi. “Ming bir kecha” XII-XIV asrlarda lotinchaga to'liq o'girilmagan bo'lsa-da, uning ayrim qismlari roman xalqlari orasida singib ketganligini olimlar e'tirof etishadi [6,b.131]. “Asli hind zaminida paydo bo'lib, keyin fors va arab tillariga tarjima etilgan “Ming bir kecha”dagi bu turkum hikoyatlar Pedro Alfons, Xuan Manuel va boshqa Yevropa adiblari ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Zero, bu hikoyatlar XVIII asrgacha franstuz, ispan va italyan tillariga qayta-qayta nashr etilgan”, – deb yozadi olim N.Komilov o'z kitobida [6,b.131].

Adabiyotshunos B.Riftin ma'lumotiga ko'ra, Yevropalik adiblardan Xuan Ruis de Alarkon (XVII asr), Fransua Blanshe (XVIII asr), Xuan Valera, X.Andersen (XIX asr) va boshqalar O'rta asr hind hamda arab

adabiyotida keng tarqalgan hikoyatlar va syujetlardan o'z roman va qissalari, drama hamda komediyalarida samarali foydalanganlar, Sharq motivlari asosida ajoyib xarakterlar ijod etganlar[7,b.81].

Darhaqiqat, “Sharq adabiyotida qadim zamonlardan davom etib kelayotgan o'ziga xos ijodiy uslub – “hikoyat ichida hikoyat” aytish dastlab Italiyada, keyinchalik Ispaniya, Franstiya va Angliyada ko'pgina ajoyib nasriy asarlarning yaratilishiga turtki bo'ldi. Uyg'onish davri adiblari va undan keyingi davr Yevropa yozuvchilari, xususan, “Ming bir kecha”dek muazzam asar syujetidan unumli foydalanganlar. Bu syujetlar asosida G'arbda yaratilgan asarlar klassik obidalarga aylangan” [6, b.140].

Uilyam Bekfordning “Vatek”[12] qissasi (1786), Tomas Murning “Lalla-ruk”[14] romani (1817), Pedro Alfons ijodida[15], Xuan Manuel [16], Franko Sakkettining “Uch yuz novella”si”[17] to'plamida va boshqa shu kabi asarlarda “Ming bir kecha”ning ta'sirini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Uilyam Bekfordning “Vatek” (xalifa Vosiq qissasi) abbosiylar sulolasidan to'qqizinchi xalifa Vosiq – Mu'tasimning o'g'li va Horun ar-Rashidning nevarasi tarixi bilan bog'liq asar bo'lib, unda o'rta asr Sharqona udumi va hayot tarzi yorqin lavhalarda ifoda etiladi[18]. 1817 yilda ingliz-irland adibi Tomas Mur o'zining eng yirik asari, to'rt qissani o'z ichiga olgan sharqona motivda yaratilgan – “Lalla ruk” (forschasiga “Lole ruh”) asarini yozdi. Syujetning ekzotizm va arxiromantik talqinga boyligi bilan Bekfordning “Vatek” va Bayronning Sharqona she'rlariga teng o'rin egalladi. Mur mazkur asarlardan kompozistion uslubni ola bilgan. “Lalla ruk” – fors tiliga tarjima qilingan va forsiyda “Buyuk milliy doston” sifatida mashhur[14]. Pedro Alfonso – ispan shifokori, yozuvchi va astronomi. Alfonsoning shuhrati asosan XII asr boshlarida lotin tilida tuzgan o'ttiz uchta qisqa hikoyatlar to'plami asosida yoyildi. Bu asar arab tilidan tarjima qilingan axloqiy xarakterdagi Sharq ertaklari to'plamidir. U yaratgan ertaklarning ba'zilari “Ming bir kecha”da ko'ringan[14].

Franko Sakkettining “Uch yuz novella”si Bokachchoning “Dekameron”i kabi Italiya uyg'onish davrining eng yorqin, eng mashhur adabiy shakliga aylangan edi. Shular qatorida “Dekameron”ning (1352 – 1354) alohida o'rni bor.

XII – XIV asrlarda Italiyada qiziqarli sarguzasht, ishqiy-romantik asarlar ko'proq tarqalgan. Bokachchoning mashhur “Dekameron” asari ham shunday asarlar toifasidan bo'lib, “Ming bir kecha” dan olingan taassurot zaminida yaratilganligiga shubha yo'q [4, b.345]. Chunki



bokachcho o'z asarini yozishda “Ming bir kecha” asarining qoliplash uslubidan foydalanganligi aniq seziladi. “Garchi bokachcho asari hozirgi kunga qadar o'z kitobxonini yo'qotmagan asarlar sirasiga kirsada, daraja o'rniga nisbatan “Ming bir kecha”ga eta olmaydi”, – deb izoh beradi adabiyotshunos olim N.Komilov[6,b.137].

“Ming bir kecha” ertaklari badiiy-estetik jihatdan pishiq ishlangan bo'lib, poetikasi – syujet mantiqi nihoyatda sermazmun. “Hikoyat ichida hikoyat” uslubida bir-biriga ulanib ketadigan voqealar tafsiloti asar hikoyatlaridagi syujetni bir ipga bog'lab ketadi.

“Ming bir kecha”ning muxlislari orasida rus atoqli adiblari nomini ham keltirish mumkin, jumladan, A.S.Pushkin, N.G.Chernishevskiy, I.S.Turgenev, L.N.Tolstoyga Shahrizoda hikoyatlari juda yoqqan. Ular bu sehrlil ertaklarni havas bilan o'qiganliklari, ijodiy fantaziyalarining shakllanishiga katta ta'sir etganligini qayd etadilar. Chunonchi, Pushkin asar bilan dastlab tanishgach, shunchalik qiziqib qoladiki, gallan tarjimasini topib, “Ming bir kecha”ni to'la o'qib chiqadi. N.G.Chernishevskiy bu asarni qayta-qayta o'qib chiqadi. U yozadi:”Men yoshligimda «Ming bir kecha» ertaklariga maftun bo'lgan edim. Keyin yoshim ulg'ayganda ham bu ajoyib to'plamni bir necha marta qayta-qayta o'qib chiqib, har gal yangidan maftun bo'lganman. Men prozaning juda ko'p go'zal namunalari bilaman, lekin bundan go'zalrog'ini bilmayman” [8, b.2].

Xarakterli jihati shundaki, Sharq adabiyotining samarali ta'sirini Chernishevskiy bevosita o'z ijodida his etgan edi. Bu jihatdan adibning “Qissalar ichida qissalar” romani diqqatga sazovordir.

“1863 yilda Petropavlovsk zindonida yozilgan adabiy-balletristik va ham ilmiy-tanqidiy xarakterga ega bu asar, muallifning o'zi qayd qilganiday, – deb yozadi N.Komilov, bevosita “Ming bir kecha” ta'sirida dunyoga kelgan: “ Mening «Qissalar ichida qissalar» romanim to'g'ridan-to'g'ri “Ming bir kecha”ning ajoyib ertaklariga nisbatan muhabbatim tufayli paydo bo'lgandir[6,b.225].

**Natijalar va muhokama.** “Ming bir kecha” barcha zamonlarda kitobxonlarga juda katta qiziqish uyg'otgan, yangidan yangi asarlarning yaratilishiga sabab bo'lgan. buning sabablari, albatta, ertaklarning o'ta hayotiyliigi, betakror kompozition qurilishi bilan bog'liq. Sharq va G'arb adabiyoti tarixida “ming bir kecha” ta'sirida yaratilgan yoki shu kitobdagi dramatism yuqori cho'qqiga ko'tarilgan lavhalardan ilhomlanib yozilgan kitoblar talaygina. Mavlono Jaloliddin Rumiyning mashhur “Masnaviyi ma'naviy”, Paulo Koeloning “al-Kimyogar” asarlari tarkibida bu

ertaklarga o'xshash lavhalar mavjudligi “Ming bir kecha” barcha davrlarda Sharq va G'arb xalqlarining sevimli kitoblaridan biri bo'lib kelganligidan dalolat beradi.

“Ming bir kecha” – evolyusion yo'lning boy ming yillik tarixiga ega bo'lgan jahon badiiy adabiyotining eng sara asarlaridan biri. Asar adabiy mevalarining yetilishi davomida “kechalar” to'plami ko'plab qadimiy miflarni, shuningdek, zamonaviy olimlarning ko'plab taxminlarini ham yaratdi. Shunisi diqqatga sazovorki, noyob ertaklar to'plamiga bo'lgan qiziqish hali ham zaiflashmagan va asar jahon madaniy maydonida o'z mavqeini mustahkam saqlab turibdi. buni hali ham uning lavhalari badiiy ijodda adiblarga ilhom baxsh etib turganligida ko'rish mumkin. Hattoki, XX va XXI asrlarda sahna materiallari, kino va animastiyalar uchun ssenariylar yaratish ishlarininig davomiyligida ham ko'rish mumkin[19].

### **Xulosa.**

1. Sharq adabiyotida qadim zamonlardan davom etib kelayotgan o'ziga xos ijodiy uslub – hikoyat ichida hikoyat aytish, muayyan maqsadni ko'zlab, mazmunan o'zaro yaqin asarlarni bir ipga tizish bilan kitob tartib berish Yevropaning qator davlatlarida – Angliya, Ispaniya, Franstiya va Italiyada ko'pgina ajoyib badiiy asarlarning yaratilishiga zamin hozirladi.

2. Biroq “Ming bir kecha” asarida didaktik pand-nasihat mazmunidagi hikoyatlar ko'p uchraydi. Badiiy sintezga uchragan Yevropacha ko'rinishdagi asarlarda bu holat deyarli sezilmaydi. Ularda ko'pincha muallif tomonidan o'ylab topilgan lavhalar kitobxonni qiziqtirish uchungina xizmat qiladi.

3. “Ming bir kecha”da voqealar tasviridan g'oyaga kelish, qahramonning ichki kechinmalari, o'y-fikrlari va hatto lavhalarning eng kichik detallarigacha asoslab ko'rsatish holati mavjud bo'lsa, Sharq hikoyatchiligining Yevropadagi yangicha ko'rinishida qahramonlar ruhiyatini ochib, detallarni yanada hayotiyashtirish orqali hayot tarzini konkret ifodalashga e'tibor qaratiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Astanova, G. A. (2020). A masterpiece of arabian tales and world literature. *Theoretical & Applied Science*, (3), 352-356.

2. Astanova, G. A. (2020). Historical truth in the images of women in shakhrizad stories. *Scientific reports of Bukhara State University*, 4(1), 204-207.

3. Astanova, G. A. (2021). Analysis of the image of wise and entrepreneurial women in Shahrizoda stories. *Theoretical &*

*applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (9), 533-537.

4. Бокаччо Ж. Декамерон. / К.Мирмухаммедов тарж. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – 345 б.

5. Иброҳимов Н. Ўрта аср араб халқ адабиёти. – Т.: Фан, 1994. – Б. 8.

6. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. – Т.: Маънавият, 1999. – Б. 131.

7. Рифтин Б.Л. Типология и взаимосвязи средневековых литератур Востока и Запада. – М.: 1974. – С. 81.

8. Салье М. Тысяча и одна ночь. – М.: 1929. – С. 2.

9. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 5.

10. Чернышевский Н.Г. Повести в повести. – Грозный: Областное книжное издание, 1951. – С. 8.

11. Шидфар Б.Я. Генезис и вопросы стиля арабского народного романа (сиры) – Генезис романа в литературах Азии и Африки. – М.: Наука, 1980. – С. 112.

12. Шидфар Б.Я. Книга далёкая и близкая. – Тысяча и одна ночь (избранные сказки). – М.: Наука, 1975. – С. 5.

13. [https://royallib.com/book/bekford\\_vilyam/vatek](https://royallib.com/book/bekford_vilyam/vatek).

14. <https://ru.wikipedia.org/wiki>

15. <https://amp.google-info.org>

16. <https://facetia.ru/>

17. <https://librebook>.

18. [https://ziyouz.uz/jahon-nasri/vilyam-bekford-1760-1844-angliya /](https://ziyouz.uz/jahon-nasri/vilyam-bekford-1760-1844-angliya/)

19. «Бағдодлик ўғри» (1924, АҚШ), «Алоуддиннинг сеҳрли чироғи» (1967, Россия), «Алибобо ва қирқ кароқчи» (1979, Ўзбекистон ва Ҳиндистон ижодкорлари ҳамкорлигида), «Шаҳризоданинг яна бир кечаси» (1985, «Тожикифильм»), «Маъруф этикдўз» (1987, Россия, Тожикистон), «Муҳаббат ва қайғу юлдузи» («Ўзбекфильм», 1986) ва бошқалар.

**TOSHKENT DAVLAT  
SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi 20-uy**

**Tel.: +998712333424**

**Web-sayt: [tsuos.uz](http://tsuos.uz)**

